

REFERAT

**Mavzu: “Dori vositalariga bo’lgan ehtiyoj va
talab istiqbolini aniqlash”**

Bajardi: Farmatsiya fakulteti
2 kurs 9/1 guruh talabasi
Mirxakimov Nodir

Tekshirdi: N.Chinibekova

Reja

1. Dori vositalariga bo'lgan ehtiyoj va unga ta'sir etuvchi omillar.
2. Alohida farmakoterapevtik guruh dori vositalariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash uslublari.
3. Qondirilgan, qondirilmagan va shakllanayotgan talab tushunchalari
4. So'rov, talab, iste'mol tushunchalari.
5. Ehtiyojni aniqlashning zamonaviy usullari.
6. Doimiy faoliyatdagi hay'atning asosiy vazifalari:
7. Qiymatning funksional taxlili (abs taxlili);
8. Afzallik tomonlarini aniqlash tizimi (ven taxlili);

Dori vositalariga bo'lgan ehtiyoj - bu aholini dori va dorixona buyumlarini sotib olish imkoniyatini qayd qilish va ularga bo'lgan talabni o'z vaqtida qondirish-demakdir.

Ehtiyojga ta'sir etuvchi omillar: aholi sonini o'sishi, faoliyatning geografik kengayishi, aholining moddiy va ma'naviy darajasi, davoning davomiyligi, epidemiya, tabiiy ofat, tibbiy va farmatsevtik xodimning kompetentligi.

Alohida farmakoterapevtik guruh dori vositalariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash uslublari:

1. Ta'sir doirasi keng bo'lgan dori vositalari (og'riq qoldiruvchi, isitma tushiruvchi).
2. Maxsus ta'sirga ega bo'lgan (sil, qandli diabet kasalligi) kasalliklarni davolashda ishlatiladigan alohida guruh dori vositalari.
3. Iste'moli cheklangan dori vositalari (narkotik dorilar, etil spirti)

Ta'sir doirasi keng bo'lgan dori vositalariga bo'lgan ehtiyojni topish uchun iqtisodiy matematik usullardan foydalaniladi.

Maxsus ta'sirga ega bo'lgan kasalliklarini davolashda ishlatiladigan alohida guruhlar uchun quyidagi formuladan foydalanib ehtiyoj topiladi.

$$\Theta = D \times K \times B.$$

bu erda Θ -maxsus dori vositalarga bo'lgan bir yillik ehtiyoj.

Д-бitta bemorga davolash kursi davomida ketadigan miqdor.

K -davolash kurslari soni .

Б -ayni dori vositasi yordamida davolanadigan bemorlar soni.

demak, maxsus ta'sirga ega bo'lgan dorilarga bo'lgan ehtiyojni aniqlashda shu kasallik bo'yicha aholining kasallanish darajasi, davolash usullari va dori vositasi miqdori kabi ko'rsatkichlarni jamlab, taxlil qilish tavsiya etilgan. bunda bir bemorga dori vositasining 1 kurs davolanishi uchun sarflanishi va 1 yilda taxminiy davolanish kursi soni aniqlanadi.

iste'moli cheklangan dori vositalariga bo'lgan ehtiyoj quyidagi formula bilan ifodalanadi;

$M \times A$

$\Theta = \frac{\quad}{\quad}$

1000

bu erda Θ -1yilga ushbu preparat uchun maksimal to'g'ri keladigan ehtiyoj. M - bir yilga 1000 ta aholi uchun shu preparatning me'yori .

A -aholi soni.

talabni o'rganish borasida 3 xil turi farqlanadi;

1. Qondirilgan talab-bu dorixonada aholi iste'moli uchun doimo etarli miqdorda bor bo'lgan dori vositalari va tibbiyot buyumlari salmog'idir.

2. Qondirilmagan talab-dorixona sistemasiga kelmagan yoki kam miqdorda kelib tushgan dori vositalaridir.

3. Shakllanayotgan talab-bu yangi dori vositalar kam miqdorda o'rganilgan dori vositalariga bo'lgan talabdir.

Qondirilmagan talab quyidagi formula yordamida topiladi:

$\Pi = (\dots T\Phi * \Delta o \dots) + \Pi_0 + \Pi_1$

$\Delta \Phi$

Π -ma'lum vaqtdagi qondirilmagan ehtiyoj hajmi.

$T\Phi$ -dorixona tarmog'iga berilgan dori vositalar miqdori.

Δo -ta'minlab berilmagan dori vositalar miqdori.

$\Delta \Phi$ –dorixonada dori vositalari mavjud bo'lgan kunlar soni.

Π_0 –davolash muassasalari qoshidagi dorixonalar, qancha miqdorda dori vositalari bilan ta'minlanmaganligi.

Π_1 –dorixona omborlaridan ta'minlanuvchi davolash muassasalari qancha miqdorda dori vositalar bilan ta'minlanmaganligi.

So'rov - aholining, dpm'larning ilmiy, praktikaviy yutuqlarini hisobga olgandagi dorixona sharoitida qondirish.

Talab - dorixona sistemasida bo'lishi kerak bo'lgan dori vositalari miqdoridir.

Iste'mol – sotilgan dori vositalari va boshqa tibbiyot mollarini hajmi bilan belgilanadi.

Hozirgi vaqtda zamonaviy usullar yordamida ehtiyoj aniqlanadi:

- me'yorlashtirish;
- analitik tenglashtirish;
- korrelyatsion tahlil qilish;
- regression tahlil qilish;
- indeks usuli;
- iqtisodiy matematik usuli;
- ekstrapolyatsiya usuli;
- trendli va ko'p omilli modellashtirish.

O'zRSSVning 2005 yil 12 oktyabrda 506 sonli buyrug'i asosida dori vositalari, tibbiy ashyo va tibbiy asbob uskunalarni sotib olish taqsimlash va ulardan unumli foydalanishni nazorat qiluvchi "doimiy faoliyatdagi hay'at" O'zRSSV, Qoraqalpog'iston RSSV viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalari, Toshkent shahar so'liqna saqlash bosh boshqarmasi va barcha dpm'larda tashkil etilgan.

Doimiy faoliyatdagi hay'atning asosiy vazifalari:

1. Asosiy dori vositalari, tibbiy ashyo va tibbiy asbob-uskunalarga bo'lgan talabni o'rganadi va buyurtma tuzadi.

2. Dori vositalari tibbiy buyumlar, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarga bo'lgan ehtiyojni va boshqa ko'rsatkichlarni hisobga oladi.

Doimiy faoliyatdagi hay'at raisi etib SSVning birinchi o'rinbosari, viloyat va shahar sog'liqni saqlash bosh boshqarmasi boshliqlarining birinchi o'rinbosarlari va dpm bosh shifokorlarining o'rinbosarlari doimiy faoliyatdagi hay'at a'zolari etib

yetakchi mutaxassislar, viloyat va shaxar sog'liqni saqlash boshqarma boshliqlari tayinlanadi va tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash tizimidagi davolash profilaktika muassasalarini dori vositalari bilan ta'minlash ishlarini yaxshilash, dori vositalarini xarid qilish uchun ajratilayotgan byudjet mablag'laridan samarali foydalanish va axoliga ko'rsatilayotgan davolash profilaktika yordamining sifatini oshirish maqsadida 27 dekabr 2013 yilda «asosiy dori vositalarini ro'yxatini va voyaga yetmaganlar uchun asosiy dori vositalarini tasdiqlash to'g'risida» gi 443-sonli buyruq chiqarildi va unga «asosiy dori vositalari ro'yxati» ilova qilindi. «asosiy dori vositalari» ro'yxatiga asoslanib, «muassasa dori vositalari formulyari» ishlab chiqildi va sog'liqni saqlash vazirligining doimiy faoliyatidagi xay'atiga tasdiqlash uchun taqdim etildi. Xududlardagi davolash profilaktika muassasalarida byudjet mablag'lari xisobiga dori vositalarini xarid qilish, doimiy faoliyatdagi xay'at ishtirokida, faqatgina muassasalar formulyariga kiritilgan dori vositalari ro'yxati bo'yicha raqobat narxлари asosida amalga oshiriladi.

Davolash profilaktika muassasasi uchun dori vositalariga bo'lgan extiyojni aniqlashda formulyar tizimi katta muvaffaqiyat bilan qo'llaniladi. Shu maqsadda quyidagi taxlillar qilinadi:

- Qiymatning funksional taxlili (abs taxlili);
- Afzallik tomonlarini aniqlash tizimi (ven taxlili);
- Shifoxonada statistik taxliliga asoslangan dori talabnoma – chiqimi;
- Abs taxlil. Zahiralarini boshqarish usullari yordamida aniqlangan

dorilar iste'molining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bu kam sonli dori vositalarining maksimal iste'molidir. Birinchi jadvalda 3 ta gurux dori vositalarining nomenklaturasining solishtirma og'irligi va xajmi (qiymatda) ko'rsatilgan.

Aniklanishicha, dori vositalari nomenklaturasining taxminan 10-20%ini xajmda (kiymatda) 70-80%i iste'mol qilinar ekan.

GURUX	ISTE'MOL QILISH	
	NOMI, %	XAJMI, (QIYMATI) %
A	10-20	70-80
B	0-30	0-25
S	60-80	5-20

Jadvalda ko'rsatilgan guruxlarning iste'moli aniq chegaralanmagan. Ular taxlil maqsadiga ko'ra o'zgarishi mumkin. Lekin ajratilgan moliya resurslarining asosiy qismi kam miqdordagi dorilar nomenklaturasi xaridi uchun ishlatilishi aniq. Abs taxlilining asosiy maqsadi esa aynan shu dori nomenklaturasini aniqlashdir. A – guruxi dori vositalari, albatta, mftf (davolash profilaktika muassasasining farmakoterapevtik formulyasi) ro'yxatiga kiritiladi. Abs taxlili natijasida chiqimlarni kamaytirish va sotib olishni rejalashtirish, tovarlarni grafik bo'yicha yetkazish berish, eng arzon maxsulotni tanlash, xodimlarni taqsimlash, zahiralarini boshqarish, yaroqlilik muddatiga e'tibor berish va boshqalarni samarasi oshadi.

Ven taxlil usuli. Mftf ruyxatiga dori vositalarini tanlashda asos sifatida xizmat qiladi, dori vositalarining afzallik tomonlarini aniqqash tizimi. Ven - uchta tushunchalarning qisqartirmasi:

v – (vital xayotiy) xayotiy zarur dori vositalarining guruxi bo'lib, ularni yo'qligi og'ir va salbiy asoratlarga olib kelishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki ushbu dori vositalari majburiy tartibda mftf ro'yxatiga kiritilishi kerak (masalan, vaksinalar).

e – (essential muxim) eng ko'p uchraydigan kasalliklarni davolashda qo'llaniladigan muxim va samarali dori vositalar.

n – (non-essential – muxim bo'lmagan) soni cheklangan kasalliklarni davolashda ishlatiladigan ko'pincha samaradorligi gumonli yoki juda qimmat va ahamiyatsiz farmakoterapevtik kuchga ega bo'lgan dori vositalari kiradi.

Ven tasnifini aniqlash qanchalik muximligini inobatga olgan xolda xamda yuqorida berilgan mezonlarga asoslanib, yuqori malakali tayyorlangan mutaxassislarga topshirilishi kerak. Taxlil paytida asosiy e'tiborni dori vositalarini samaradorligiga berish kerak, narxi esa ikkinchi darajali ko'rsatkichdir.

Ven taxlil natijalarini amaliyotda qo'llashni soddalashtirish uchun mftf ro'yxatiga kiritilgan tegishli dori vositalar v, e, n xarflari bilan belgilanadi.

Ven tasnifi quyidagi maqsadlarda qo'llanishi mumkin:

- Davlat ajratmalar kamaygan paytda tez va oson tegishli o'zgartirishlar kiritish uchun;
- Xayotiy zarur dori vositalarining zaxirasiga ega bo'lish va uni doimiy borligini ta'minlash uchun;
- Xayotiy zarur dori vositalariga narx belgilashda asosiy bo'lmagan dori vositalardan quyish (subsidiyalash);
- Asosiy va xayotiy zarur dori vositalarni mavjudligini doim nazorat qilib turuvchi insoniy resurslarni optimal taqsimlash.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi 2013 yil 27 dekabrda 443-sonli «Asosiy dori vositalari ro'yxatini va voyaga yetmaganlar uchun asosiy dori vositalari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida»gi buyrug'i.

2. Приказ №41 Об утверждении Положения О координации учёту и контролю целевого использования средств технического содействия и гуманитарной помощи, применяемых в медицинской практике в Республике Узбекистан от 16 февраля 2009 года.

3. O'zRVMning 12 noyabr 2015 yil "Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O'zR hududiga olib kirish, undan olib chiqish va transit tarzida o'tkazish tartibini, shuningdek ularning muomalada bo'lishi yuzasidan nazoratni takomillashtirish to'g'risida"gi 330- sonli qarori.

4. O'zRVMning 2012 yil 29 martdagi "Tibbiyot muassasalarining moddiy texnika ba'zasini yanada mustaxkamlash va faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 91-sonli qarori

5. www.fitq.zn.uz

6. www.lex.uz